

RAQAMLASHTIRILGAN MUHITDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Qayumova Gavhar Abdushukurovna

QarMII o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7370548>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi. Professor-o'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlashni tashkil etish, bilimlarni egallash va mustahkamlashni nihoyatda kuchli rag'batlantirib, mustaqil ishlash jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirish, o'quv jarayonidagi eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Kalit so`zlar: masofaviy ta'lif, raqamli ta'lif, raqamlashtirish, mustaqil ish, mustaqil ishslash, kompetensiya.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В данной статье процесс формирования у студентов компетенции самостоятельной работы организован в следующие этапы. Под руководством профессора-преподавателя студентам настоятельно рекомендуется организовывать самостоятельную работу, приобретать и закреплять знания, развивать творческую активность при самостоятельной работе, что является одним из наиболее эффективных направлений в учебном процессе.

Ключевые слова: дистанционное образование, цифровое образование, цифровизация, самостоятельная работа, самостоятельная работа, компетентность.

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF COMPETENCES OF INDEPENDENT WORK IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

Abstract. In this article, the process of developing students' independent work competence is organized in the following stages. Under the guidance of a professor-teacher, students are strongly encouraged to organize independent work, to acquire and strengthen knowledge, and to develop creative activity during independent work is one of the most effective directions in the educational process.


Keywords: distance education, digital education, digitization, independent work, independent work, competence.

Talabalarning mustaqil ishslash kompetentsiyasini rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi. Professor-o'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishslashni tashkil etish, bilimlarni egallash va mustahkamlashni nihoyatda kuchli rag'batlantirib, mustaqil ishslash jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirish, o'quv jarayonidagi eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlari isloxtolarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4022-sonli "Raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-sonli "Ta'lif-tarbiya tizimini yanada

takomillashtirishga oid qo'shimcha chora–tadbirlari to'g'risida" Qaror va boshqa me'yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatiningrag'batlantirilishi ularni boshqarish va nazorat qilish orqali samaradorlikka erishiladi. Hozirgi kunda zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatda uzlusiz ta'lif tizimini rivojlantirishda namoyon bo'ladi, bunda talabalarning mustaqil ishlashi va ta'lif jarayonida mustaqil ishlash qobiliyati, nafaqat istak, balki ijodiy faoliyatining shakllanishida turli imkoniyatlarni yaratadi.



1-rasm. Motivatsiya jarayoni

Kelgusida mustaqil ishlash kompetentsiyasi rivojlanishinig samarali amalga oshirish natijaga erishishga bo'lgan qiziqish ya'ni barqaror motivatsiyani rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lif muassalari talabalarining mustaqil ishlash faoliyatini rivojlanantirish omillari quyidagicha:


1. Ichki motivatsiya. Bu jarayonda talabaning moyilligi, uning oliy ta'lif muassasasida o'qish qobiliyati. Uni oliy ta'lif muassasasiga kirishgacha o'qitish davrida mutaxassislikni tanlashda testlar, ta'lif yo'nalishini aniqlashda ma'lumotli tavsiyalar va boshqalar yordamida boshqarish mumkin.

2. Tashqi motivatsiya. Bu bosqichda kasbiy tayyorgarlik fanlarini oliv ta'lif muassasalarida o'qish natijalariga bog'liqligi bilan baholanadi. Bu omiletarlicha usul hisoblanib hal qilish muommolari optimal yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Protsessual motivatsiya. Bu talabaning bajarilgan ishning foydalilagini tushunishda namoyon bo'ladi. Talabaning bajarilayotgan ishning ahamiyatiga psixologik moslashishi ham kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan, ham mutaxassisning yutuqlarning oshishiga imkoniyat yaratadi.

2- rasm.

Raqamli muhitda talabalarning mustaqil ishlash faoliyatining samaradorlik tuzilmasi



Talabalar mustaqil ishi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan quyidagi uchta shart mavjud.

1) Individual kurslarni o'rghanish ketma-ketligi, balki auditoriya va mustaqil ishlarning o'rtacha nisbati nuqtai nazaridan ham o'quv dasturini maqbul tuzilishga bo'lган ehtiyojdan iborat. Bu yerda har xil mustaqil ishlarning, masalan, kurs loyihalari va ishlarining, hisoblash va grafik ishlarining va boshqa vazifalarning to'g'ri yo'naliшини belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bunday rejani tayyorlashdan oldin talabaning vaqt taqsimotini o'rghanish, metodik adabiyotlar bilan jihozlash va ta'lim tizimida milliy an'analarni hisobga olish kerak.

2) Ishni metodik jihatdan oqilona tashkil etish. Talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni bosqichma-bosqich o'zgartirish muhimdir. Talabalarining mustaqil ishlash jarayonida vazifalarni belgilash, vazifalarini bajarish, tahlil qilish, o'yash, paydo bo'lган muammolarni hal qilishga o'rgatishi kerak, ya'ni mustaqil ishlash jarayonidan asta-sekin ijodiy jarayonga o'tish kerak. Buni amalga oshirishda vositalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Tajribalar shuni ko'rsatib turibdiki talabalar zamonaviy paketlardan foydalanganda yoki ma'lum bir muammoning yechimini dasturlashda unga berilgan topshiriqlarni katta qiziqish bilan (kurs va diplom dizayni, nazorat topshiriqlari, boshqa turli xil uy vazifalari) bajaradilar ishda aniqlangan muammolarni o'rgani davomida mavzuning mohiyatini chuqurroq o'rghanadi, adabiyotni o'rghanadi, eng yaxshi yechimlarni izlaydi. Bu qiziqishni o'qituvchilar tamonidan rag'batlantirish ahamiyatlidir.

3) Talabalarining tegishli o'quv va uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanishi. Oliy ta'lim muassasalarilaridagi mavjud adabiyotdardan talabalarни markaziy nashriyotlarda nashr etilgan kerakli adabiyotlar bilan ta'minlashimkoniyati kamligi uchun, mavjud adabiyotlar elektron shaklda taqdim etildi. Iqtisodiy shart-sharoitimizni va matbaa bazasi imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ehtimol bu holda qisman amalga oshirilayotgan o'qituvchilarning elektron nashrlariga, ma'ruza materiallariga o'tishni tavsiya etishimiz kerak. Shu bilan birga, talabalar bilan ushbu aloqa uslubiga o'tish xos taraqqiyotning yangi talabi bo'yichaimkoniyatlarning yaratilishi bog'liqligi muhim hisoblanadi.

Axborot kominikatsiya texnologiyalari, vositali yordamida xususan, o'quv materiallarini joylashtirish uchun maxsus qurilgan va tashkil etilgan raqamli ta'lif muhitidan foydalangan holda o'quv-uslubiy adabiyotlarni masofaviy o'qitish bilan ta'minlash imkoniyatlari haqida alohida aytib o'tish lozim.

Talabaning mustaqil ishlash faoliyatining raqamlashtirish modelining faoliyat komponentining asosini oliy ta'lif muhitida talabaning o'zaro ta'sirining xususiyatlari tashkil etadi.

Bo'lajak muxandislarni kasbiy tayyorgarligida mutaxassis sifatida tayyorlash tuzilmasi orqali mustaqil ishlash hususiyatini yo'naltirib o'qitish samaradorligini belgilovchi komponentalarining reproduktiv, qisman izlanuvchan, kreativ va statistik ko'rsatkichlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Oliy matematika" fani mazmuniga singdirilgan. hamda mustaqiltalim.uz sayti yaratildi. Platformasida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatida bilim olish imkoniyatlari mavjud, yuqoridaqgi saytlar orqali talabani individual ta'lif olish imkoniyatini beradi. Natijada, aniq fanlarni o'qitish sifati oshirilgan va talabalarning mutaxassislikka bo'lgan qiziqishlarini ortirishga erishilgan. Raqamlashtirilgan ta'lif muhitida pedagogik shart-sharoitlar talabalarga onlayn ta'lif olish imkoniyatlari yuqorililigi, raqamlashtirilgan ta'lif muhitida zamonaviy dasturiy vositalarning mavjudligi bilan izohlanadi.

REFERENCES

1. Беляев В.В. Правовые проблемы внедрения дистанционных образовательных технологий в вузе / В.В. Беляев //Молочнохозяйственный вестник. – Волгоград, – 2012. – №3 (7). – С.10-15.
2. Гура В.В., Луцева И.Ю. Роль самоорганизации учебной деятельности студентов в развитии профессионально значимых компетенций/ В.В. Гура, И.Ю. Луцева// Научный журнал Международный журнал экспериментального образования [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=10846344>.
3. G.A.Qayumova. Raqamli muhitda ta'lif sifatini oshiruvchi omillar. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5 UIF–2022: 8.2 | ISSN: 2181–3337. September 2022, Paje.289–292<https://doi.org/10.5281/zenodo.7036657>